

**Sobirov Avazbek Anvarovich,**

Andijon shahridagi Prezident maktabi o'quv ishlari  
bo'yicha direktor o'rinnbosari

# "KEMBRIJ AS AND A-LEVEL" IMTIHONLARI VA DASTURNING AFZALLIKLARI (ANDIJON SHAHRIDAGI PREZIDENT MAK TABI TAJRIBASIDA)

UO'K: 37.37.01

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL\\_2024\\_ISSUE\\_11\\_4](https://doi.org/10.34920/SO/VOL_2024_ISSUE_11_4)

## **SOBIROV A.A. "KEMBRIJ AS AND A-LEVEL" IMTIHONLARI VA DASTURNING AFZALLIKLARI (ANDIJON SHAHRIDAGI PREZIDENT MAK TABI TAJRIBASIDA)**

Ushbu maqola "Kembrij AS and A-Level" imtihonlari va dasturining foydalari hamda qiyinchiliklarini Andijon shahridagi Prezident maktabi tajribasi asosida o'rganadi. Xalqaro tan olingan ta'lif tizimi sifatida "Kembrij AS and A-Level" dasturlari o'quvchilarni oliv ta'limga tayyorlash va global raqobatbardoshlikni oshirish uchun mo'ljallangan. Biroq, uning amalga oshirilishi o'ziga xos qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Andijon shahridagi Prezident maktabining tajribasidan kelib chiqib, ushbu ta'lif modelining afzalliklari va qiyinchiligin chuqurroq tushunishga yordam beruvchi tahlil amalga oshiriladi.

Tayanch so'z va tushunchalar: Xalqaro tan olinishi, Moslashuvchanlik, Mustaqil fikrlash, Amaliy bilimlar, Individual yondashuv, Aniq baholash tizimi, Xalqaro hamkorlik, Yuqori natijalar, Universitetlarga kirish imkoniyati, Intellektual rivojlanish.

## **СОБИРОВ А.А. ПРЕИМУЩЕСТВА ЭКЗАМЕНОВ И ПРОГРАММЫ «CAMBRIDGE AS AND A-LEVEL» (НА ПРИМЕРЕ ПРЕЗИДЕНТСКОЙ ШКОЛЫ ГОРОДА АНДИЖАНА)**

В этой статье исследуются преимущества и трудности экзаменов и программы «Cambridge AS and A-Level» на примере опыта Президентской школы города Андикана. Будучи международно признанной образовательной системой, программа «Cambridge AS and A-Level» предназначена для подготовки учащихся к высшему образованию и повышения их глобальной конкурентоспособности. Однако, её внедрение вызывает определенные трудности. Основываясь на опыте Президентской школы города Андикана, проводится анализ, помогающий глубже понять преимущества и сложности данной образовательной модели.

Ключевые слова и понятия: международное признание, гибкость, независимое мышление, практические знания, индивидуальный подход, точная система оценки, международное сотрудничество, высокие результаты, возможность поступления в университеты, интеллектуальное развитие.

## **SOBIROV A.A. ADVANTAGES OF "CAMBRIDGE AS AND A-LEVEL" EXAMS AND PROGRAM (BASED ON THE EXPERIENCE OF THE PRESIDENTIAL SCHOOL IN ANDIJAN)**

This article explores the benefits and challenges of the "Cambridge AS and A-Level" exams and program based on the experience of the Presidential School in Andijan. As an internationally recognized educational system, the "Cambridge AS and A-Level" programs are designed to prepare students for higher education and enhance their global competitiveness. However, their implementation presents certain challenges. Based on the experience of the Presidential School, an analysis is conducted to provide a deeper understanding of the advantages and challenges of this educational model.

Key words and concepts: international recognition, flexibility, independent thinking, practical knowledge, individual approach, accurate assessment system, international cooperation, high results, university admission opportunities, intellectual development.

### **Kirish.**

"Kembrij AS and A-Level" malakalari o'zining akademik standartlari va xalqaro tan olinganligi bilan mashhur. 16-19 yoshdagi o'quvchilar uchun mo'ljallangan bu imtihonlar keng ko'lamli fanlar bo'yicha chuqur bilim olish va mustaqil o'rganishni rivojlantiradi. Imtihon topshirgan o'quvchilar A\*, A, B, C baho olsalar qoniqarli deb hisoblanadi D, E va U baho olsalar qoniqarsiz baho deb hisoblanadi. Andijon shahridagi Prezident maktabi "Kembrij AS and A-Level" imtihonlarini topshirishga mo'ljallangan viloyatdagi ilk imtihon markazi sifatida 2023 yil may oyidan Prezident maktabi ilk bitiruvchilarini chiqardi. Ushbu maqola maktabning tajribasini o'rganib chiqib, ta'lim modelining afzallikkari ko'rib chiqadi.

"Kembrij AS and A-Level" dasturi akademik qat'iyatliliqi bilan mashhur. Prezident maktabida o'quvchilar ushbu dastur orqali tizimli bilim olishadi va fanlarni mukammal o'zlashtiradilar. Bu qat'iyatlilik o'quvchilarining tahliliy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshiradi, bu esa ularning oliy ta'lim va undan keyingi muvaffaqiyatlari uchun zarurdir. Dastur tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan, bu esa o'quvchilarni universitet darajasidagi o'qishga tayyorlaydi va akademik ko'rsatkichlarini yaxshilaydi.

"Kembrij AS and A-Level" malakalari xalqaro tan olinganligi bilan ajralib turadi. Prezident maktabida ushbu imtihonlarni topshirgan o'quvchilar butun dunyo bo'ylab nufuzli universitetlarga kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Xalqaro tan olish ularning oliy ta'lim muassasalariga kirishini osonlashtiradi va global akademik muhitga mos keladigan tayyorgarlikni ta'minlaydi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki agar

imtihondan eng yuqori A\* yoki A darajadagi natijaga erishgan o'quvchi bo'lsa uni universitetlar bir yo'la 2-bosqichdan o'qishga qabul qilgan holatlar ham tajribadan bo'lgan, sababi xalqaro universitetlarning 1-bosqichda talabalgara o'rgatiladigan bilimlar A Level darajasiga mos bo'lganligi deb izoh berishgan. Bu dastur xalqaro akademik standartlarga mos keladigan tarzda tuzilgan, shuning uchun o'quvchilar global akademik muhitga tayyor bo'ladi.

**Mavzuning dolzarbliyi.** O'zbekiston ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va global raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash dolzarb masalalardan biridir. "Kembrij AS and A-Level" dasturi, dunyo miqyosida tan olingan ta'lim modeli sifatida, o'quvchilarga yuqori sifatli bilim berish va ularni xalqaro oliy ta'lim muassasalariga tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi. Andijon shahridagi Prezident maktabida ushbu dastur joriy etilganligi, O'zbekistonning xalqaro ta'lim standartlari bilan integratsiyalashuvini jadallashtirishda muhim qadam hisoblanadi. Shu sababli, Kembrij dasturining afzallik va qiyinchiliklarini o'rganish, milliy ta'lim tizimining kelgusidagi rivoji uchun dolzarbdir.

### **Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.**

O'zbekiston va xalqaro miqyosda "Kembrij AS and A-Level" imtihonlari, shuningdek, xalqaro ta'lim tizimi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan bir nechta olimlar va ularning ishlarini misol qilib keltirish mumkin:

John Biggs «Teaching for Quality Learning at University» asarida<sup>1</sup>, - John Biggs ta'lim tizimida chuqur o'qitish va mustaqil fikrlashni rivojlant-

<sup>1</sup> John Biggs «Teaching for Quality Learning at University» asarida

rish bo'yicha ko'p izlanishlar olib borgan. Uning tadqiqotlari xalqaro ta'lif modellari, jumladan Kembrij dasturlarining oliv ta'lifda qo'llanilishi va amaliyotga tatbiq etilishiga bag'ishlangan.

Paul Black va Dylan Wiliam "Assessment and Classroom Learning"<sup>1</sup> asarida olimlar ta'lifdagi baholash tizimlari va ularning o'quv jarayonidagi roliga oid tadqiqotlar olib borishgan. Ular o'quvchilarning bilim darajasini samarali baholash va Kembrij kabi xalqaro dasturlardagi baholash tizimining o'rganilishini tahlil qilishgan. Cambridge Assessment International Education mutaxassislari: «Cambridge International AS and A Level: Improving Learner Outcomes» qo'llanmasi. Ushbu tashkilot olimlari va mutaxassislari Kembrij imtihonlari va dasturining samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan. Bu ishlar Kembrij dasturlari o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qanday hissa qo'shishi haqida batatsil ma'lumot beradi.

Dr. Andrew Watts «The Impact of Cambridge International Examinations on University Admission»<sup>2</sup> asarida Dr. Watts xalqaro imtihonlarning universitetga qabul qilishdagi ahamiyati va ularning o'quvchilarga ta'siri haqida tadqiqotlar olib borgan. Uning tadqiqotlari "Kembrij AS and A-Level" imtihonlarining o'quvchilar uchun xalqaro oliv o'quv yurtlariga kirishdagi foydasi haqida yoritadi.

O'zbekiston ta'lif sohasi olimlari: Qayumov Baxtiyor va Akbarova Mahliyo "Xalqaro ta'lif tizimlarini milliy ta'lif tizimiga integratsiya qilish tajribalari"<sup>3</sup> asarida, mahalliy olimlar O'zbekistonda xalqaro ta'lif dasturlarini, jumladan, "Kembrij AS and A-Level" kabi dasturlarni joriy qilish va milliy ta'lif tizimida ularni amalgalashirish jarayonlarini o'rganishgan. Asarlarda Prezident maktablari tajribasi, ushbu dasturlar o'quvchilarning bilim olish jarayoniga qanday ta'sir qilishini yoritganlar.

O'zbekistonda Prezident maktablari va xalqaro ta'lif dasturlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar hali rivojlanayotgan bo'lsa-da, yuqorida olimlar va ularning asarlari xalqaro

ta'lif modellari va baholash tizimlarini chuqur o'rganishda muhim hissa qo'shgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Andijon shahridagi Prezident maktabi tajribasi asosida "Kembrij AS and A-Level" imtihonlari va dasturining afzalliliklari va qiyinchiliklarini tahlil qilish. Shu orqali ushbu ta'lif tizimining o'quvchilarni oliv ta'limga tayyorlashda, ularning intellektual rivojlanishini ta'minlashda va global raqobatbardoshlikni oshirishdagi samaradorligini aniqlashdir.

**Tadqiqotning obyekti.** Andijon shahridagi Prezident maktabida joriy etilgan "Kembrij AS and A-Level" imtihonlari va dasturi. Ushbu ta'lif modeli orqali o'quvchilarning bilim darjasini, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini, va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishda qanday natijalar berayotgani tahlil qilinadi.

**Tadqiqotning predmeti:** "Kembrij AS and A-Level" imtihonlari va dasturining Andijon shahridagi Prezident maktabi o'quvchilari uchun ta'lif jarayonidagi amaliy qo'llanilishi va uning samaradorligi, shu jumladan, o'quvchilarning bilim olish jarayoniga ta'siri, qiyinchiliklari va natijalarini.

**Maqolaning ilmiy yangiligi.** Andijon shahridagi Prezident maktabi misolida "Kembrij AS and A-Level" imtihonlari va dasturining afzalliliklari va qiyinchiliklarini birinchi bor batatsil o'rganish va tahlil qilishdadir. Ushbu tadqiqot orqali ushbu xalqaro ta'lif modelining O'zbekistonda qo'llanilishi va uning mahalliy ta'lif jarayonidagi samaradorligi haqida yangi ma'lumotlar beriladi. Tadqiqot, shuningdek, xalqaro ta'lif tizimining o'quvchilarning intellektual va amaliy rivojlanishiga, shuningdek, ularning oliv ta'lif muassasalariga kirish imkoniyatlariiga ta'sirini ko'rsatib beradi.

**Asosiy qism.** Mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish. "Kembrij AS and A-Level" dasturi mustaqil o'rganish va o'z-o'zini rag'batlantirishni ta'kidlaydi. Prezident maktabida ushbu yondashuv o'quvchilar o'rtaida o'z-o'zini boshqarish madaniyatini rivojlantirdi. O'quvchilar sinfdan tashqarida fanlar bilan shug'ullanish, tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish va o'z o'rganishlariga mas'uliyatini olishga rag'batlantiriladi. Ushbu mustaqillik o'quvchilarni oliv ta'lifning talablariga tayyorlash va uzoq muddatli o'rganish odatlarini rivojlantiradi.

<sup>1</sup> Paul Black va Dylan Wiliam "Assessment and Classroom Learning" asarida

<sup>2</sup> Dr. Andrew Watts «The Impact of Cambridge International Examinations on University Admission»

<sup>3</sup> Qayumov Baxtiyor va Akbarova Mahliyo. "Xalqaro ta'lif tizimlarini milliy ta'lif tizimiga integratsiya qilish tajribalari".

"Kembrij AS and A-Level" tizimi keng ko'lamli fanlar tanlovini taklif qiladi, bu Prezident maktabi o'quvchilariga 8-sinfdan boshlab o'z o'qishlarini qiziqishlari va kasbiy maqsadlariga muvofiq ravishda sozlash imkoniyatini beradi. Bu moslashuvchanlik o'quvchilariga fanlar bo'yicha o'z kuchli tomonlarini va qiziqishlarini izlash imkonini beradi, bu esa o'quvchilar ishtiyoqini va motivatsiyasini oshiradi.

"Kembrij AS and A-Level" dasturini amalgalashirish mavjud ta'lim tizimiga sezilarli o'zgartirishlarni talab qiladi. O'qituvchilar Kembrij standartlari va pedagogik yondashuvlari bilan tanishishlari kerak edi, bu esa katta professional rivojlanish sarfini talab qildi. Ushbu qiyinchilikni yengish uchun o'qituvchilarga doimiy yordam va resurslar taqdim etish muhim bo'ladi. Andijon shahridagi Prezident maktabida Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi xorijiy hamkorlar bilan birgalikda o'qituvchilarga davriy ravishda seminar treninglar tashkil etilib boradi. Shu bilan birga maktabda fizika, matematika, kimyo, biologiya, matematika, tabiiy fanlar, ingliz tili va kompyuter ta'limi fanlaridan xorijdan kelib o'z faoliyatini olib boradigan o'qituvchilar ishlab kelmoqda.

"Kembrij AS and A-Level" tizimiga o'tish o'quvchilar uchun akademik talablar va mustaqil o'rganish bo'yicha qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Prezident maktabida ushbu o'tishni qo'llab-quvvatlash uchun qoshimcha yordam mexanizmlari joriy qilindi. Bu akademik maslahatlar, o'qish ko'nikmalari bo'yicha seminarlar va shaxsiy yordamni o'z ichiga oldi. Bu sohada o'quvchilarga xar bir sinf uchun ajratilgan tarbiyachi-pedagoglarimizni yordami ham ulkan bo'lmoqda. O'quvchilarga uy vazifalarini bajarishda zarur yordamni taqdim etish, yangi tizimning qiyinchiliklarini yengishga va o'qishlarda muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi.

"Kembrij AS and A-Level" Imtihonlari yuqori baholash standartlari bilan tanilgan. Men o'zim fizika o'qituvchisi bo'lganligim uchun aytishim mumkinki, Kembrij dasturi bo'yicha o'quvchilar fizika fanidan 11-sinfni bitirayotgan o'quvchi A Level imtihoni topshirmoqchi bo'lsa jami 5 turdag'i imtihonni topshirib fizika fanidan olgan bilimlarini sinovdan o'tkazar edi. 2024 yil may-yun imtihonlaridan boshlab Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi direktori tegishli

buyrug'iga asosan, Prezident maktablaridagi o'quvchilarini xalqaro AS va A level imtihonlarini topshirishda yanada qulaylik yaratish maqsadida 10-sinfni tugatganda 3 turdag'i imtihon (AS level talabi) 11-sinfni bitirganda qolgan 2 turdag'i (A level bo'ladi AS natijasini qo'shsa) imtihonlarni topshirishga sharoit yaratib berildi. O'quvchilardan ushbu standartlarga javob berishlari uchun qat'iy baholash amaliyotlari va doimiy fikr-mulohaza talab etiladi. Prezident maktabi o'quvchilar rivojlanishini kuzatish va o'z vaqtida fikr-mulohaza berish uchun mustahkam tizimlarni ishlab chiqdi. Birgina misol sifatida bu yil Andijon shahridagi Prezident maktabi 10-sinf o'quvchilari may-yun oyidagi xalqaro AS imtihonlarida quyidagi natijalarni qayd etdi (1-jadval).

Ushbu natijalarga erishishda Andijon shahridagi Prezident maktabi ahil jamoasining mashaqqatlari mehnati yotibdi. Qiyinchilikni yengish uchun xodimlarni samarali o'qitish usullarida darslarni tayyorlash va ma'lumotlardan foydalaniib, o'quvchilar yutuqlarini qo'llab-quvvatlash muhimdir.

### Xulosha.

"Kembrij AS and A-Level" Imtihonlari va dasturi katta afzalliklarga ega, jumladan, yuqori akademik qat'iyatlilik, xalqaro tan olish, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish va moslashuvchan dastur. Andijon shahridagi Prezident maktabining tajribasi bu afzalliklarning qanday qilib o'quvchilarni oliy ta'lim va global raqobatbardoshlik uchun tayyorlashiga yordam berishini ko'rsatadi. Biroq, dastur amalgalashirish bilan bog'liq qiyinchiliklar, jumladan, dasturni amalgalashirish, o'quvchilar moslashuvchi va baholash amaliyotlarini samarali boshqarish zarur. "Kembrij AS and A-Level" dasturni mammakatimizdagi har bir maktablarida kengroq doirada amaliyotga qo'llasak kelajak avlodimiz yanada bilimli, mulohazali va har qanday sharoitda o'z fikriga ega kadrlar bo'lib yetishishiga ishonaman.

"Kembrij AS and A-Level" imtihonlari va dasturi, xalqaro ta'lim tizimi sifatida, o'quvchilarini oliy ta'limga sifatli tayyorlash, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va global raqobatbardosh bo'lishga yordam beradi. Andijon shahridagi Prezident maktabi tajribasi ushbu dastur O'zbekistonda muvaffaqiyatli amalgalashirish mumkinligini ko'rsatadi. O'quvchilarga

**1-jadval. Andijon shahridagi Prezident matabida 10-sinf bitiruvchilarini 2024 yil may-iyun oylarida o'tkazilgan xalqaro AS Level imtihon natijalari bo'yicha (A\*, A, B, C) baho olgan o'quvchilar tahliliy jadvali**

Maktab nomi	Mathematics	Physics	Chemistry	Biology	Computer Science	Economics
Andijon shahridagi Prezident matabi (2024 yil, may-iyun imtihoni 10-sinf o'quvchilar)	96	100	100	100	95	78
Dunyo bo'yicha fanlardan imtihon topshirganlarni o'rtacha ko'rsatkichi	60,8	62,9	63,2	56,3	40,6	58,5
Andijon shahridagi Prezident matabi o'quvchilari ko'rsatkichi Dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan farqi	+35,2	+37,1	+36,8	+43,7	+54,4	+19,5

amaliy bilimlar berish, baholash tizimining adolatliligi va oliy o'quv yurtlariga kirish imkoniyatlari Kembrij dasturining eng katta afzalliklaridan hisoblanadi. Biroq, bu jarayonda dastur bilan bog'liq qiyinchiliklar ham mavjud. Ayniqsa, dasturga tayyorgarlik ko'rish uchun zarur resurslar va o'quvchilarni yangi o'qitish usullariga moslashtirish jarayonida qiyinchiliklar kuzatilmoqda.

**Takliflar:**

**O'quituvchilar malakasini oshirish:** Kembrij dasturini muvaffaqiyatlil joriy etish uchun o'quituvchilarni xalqaro ta'lif tizimi va innovations o'qitish metodlari bo'yicha malakasini oshirish dasturlari va treninglariga jalb qilish kerak.

**Zarur resurslar va infratuzilma bilan ta'minlash:** O'quv jarayonini to'liq qo'llab-quvvatlash uchun maktablar Kembrij dasturiga mos

keladigan darsliklar, texnologiyalar va laboratoriylar bilan ta'minlanishi lozim.

**Ota-onalar va o'quvchilar uchun tushuntirish ishlari olib borish:** Kembrij dasturining mohiyatini va afzalliklarini kengroq tushuntirish maqsadida ota-onalar va o'quvchilar o'rtasida seminarlar, treninglar tashkil qilish kerak. Bu o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi.

**Mahalliyashtirish:** Kembrij dasturini milliy ta'lif tizimiga moslashtirish maqsadida mahalliy sharoitlarga mos o'quv dasturlarini ishlab chiqish va milliy tilga mos darsliklar yaratish muhim.

**Xalqaro tajriba almashinuvi:** Prezident maktablari va boshqa o'quv muassasalari o'rtasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali o'quituvchilar va o'quvchilar xalqaro tajribani o'rganishi va joriy etishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. John Biggs «Teaching for Quality Learning at University» asarida. McGraw-Hill Education. 2011 year.
2. Paul Black va Dylan Wiliam "Assessment and Classroom Learning" asarida. Assessment in Education: Principles, Policy & Practice, Taylor & Francis. 1998 year.
3. Dr. Andrew Watts «The Impact of Cambridge International Examinations on University Admission». Cambridge University Research Division. 2017 year
4. Cambridge Assessment International Education. "Cambridge International AS and A Level: Improving Learner Outcomes". Cambridge University Press. 2020 year.
5. Brown, Sally va Knight, Peter. "Assessing Learners in Higher Education". Routledge. 1994 y
6. Harlen, Wynne. "The Teaching of Science in Primary Schools". David Fulton Publishers. 2006 year.
7. Qayumov Baxtiyor va Akbarova Mahliyo. Xalqaro ta'lif tizimlarini milliy ta'lif tizimiga integratsiya qilish tajribalari. - Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Nashriyoti. 2011 y